


67. Tenglamalar

Yondosh mavzu:
elektr energiyasi


O'zgaruvchi,
tenglamaning ildizi



1. Ta'mirlash uchun maktab 120 ta elektr rozetkasini sotib oldi, ulardan 36 tasi ikkitalik, qolganlari bittalik. Qancha bittalik rozetka sotib olindi?

a) x ni topish uchun ifoda tuzing.

b) x noma'lum kattalik qatnashgan tenglama tuzing.



Noma'lum kattalik qatnashgan tenglik
tenglama deyiladi.

Tenglamaga misol: $x + 120 = 200$.

Noma'lumning tenglamani to'g'ri tenglikka
aylantiradigan qiymati tenglamaning ildizi deb ataladi.

Tenglamani yechish – ushbu noma'lum kattalikning
qiymatini topish degani.



2. Ushbu tengliklardan qaysilari tenglama bo'ladi?
To'g'ri tenglikni, noto'g'ri tenglikni toping.

$$450 - 250 = 250$$

$$320 + x = 480$$

$$700 - 280 = 420$$

$$430 - x = 430$$



3. Tenglamalarni yeching.

$$223 + (y + 178) = 742$$

$$561 - (t + 154) = 137$$

$$480 - (n - 345) = 255$$

$$431 + (b - 29) = 678$$



4. Ifodalardagi amallar tartibini aniqlang.

a) $c + (a - b)$

b) $m - (n - k)$

d) $x + (d - c) + y$




5. Tumanda 276 ta ko'p qavatli, 508 ta bir qavatli uylar bor. Shundan 128 ta ko'p qavatli uy va 223 ta bir qavatli uyga quyosh batareyalari o'rnatildi.

Savollarga javob berish uchun ifodalar yozing:


- Tumanda nechta uy bor?
- Nechta uyga quyosh batareyasi o'rnatilgan?




6. Daftaringizga sonli nur chizing va bo'shliqlarni to'ldiring.



7. Rozetkalar orasidagi masofalar bir xil. Chetki rozetkalar orasidagi masofani toping.



8. Rasmdan uchburchakning noma'lum tomonini toping. Bu uchburchakning perimetri 418 cm.



9. Telefon 340 minutda, planshet 50 minut ko'proq vaqtda quvvat oladi. Agar bitta zaryadlovchi sim bo'lsa, ikkala qurilma qancha vaqtda zaryad oladi?



10. Tenglamalarni yeching.

$$154 + (x + 213) = 980$$

$$(y + 41) - 413 = 233$$

$$760 - (800 - t) = 221$$

$$640 - (227 + m) = 245$$